

14. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning javollariga javoblari. "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2021 yil 17 avgust.

ANDIJONLIK ZIYOLILAR TAQDIRIDAN

ИЗ СУДБЫ АНДИЖАНСКОЙ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ

THE FATE OF ANDIJAN INTELLECTUALS

I.I.Ikromov

Andijon viloyat tarixi va madaniyati
davlat muzeyi katta ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshlari Turkiston o'lkasining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida faol ishtirok etgan tarixchi, seleksioner, xattot, tarjimon, publitsist Muhammad Fozilbek Otabek o'g'lining hayoti va ilmiy-ijodiy merosi arxiv hujjatlari, tarixiy manbalar orqali tadqiq qilinib, keng ilmiy jamoatchilik uchun hali noma'lum bo'lgan materiallar taqdim qilinadi.

Kalit so'zlar: qo'lyozma, seleksioner, manba, maorif, madrasa, Turkiston.

Аннотация: В статье исследуется жизнь и научно-творческое наследие историка, селекционера, каллиграфа, переводчика, публициста Мухаммада Фазилбека Атабек углу, принимавшего активное участие в общественно-политической и культурной жизни Туркестана в начале XX века посредством архивных документов, исторические источники, неизвестные широкой публике.

Ключевые слова: рукопись, селекционер, источник, образование, медресе, Туркестан.

Annotation: The article examines the life and scientific and creative heritage of the historian, breeder, calligrapher, translator, publicist Muhammad Fozilbek the son of Otabek, who took an active part in the socio-political and cultural life of Turkestan at the beginning of the 20th century through archival documents, historical sources unknown to the general public.

Key words: manuscript, breeder, source, education, madrasah, Turkestan.

XX asr boshlarida Chor imperiyasi tasarrufida bo'lgan Turkiston o'lkasida mustabid tuzumning kishanlaridan qutulish, o'lkaning siyosiy-iqtisodiy erkinligini ta'minlash, keng xalq ommasini savodli qilish, yangi usul maktablari orqali xalqni jaholat uyqusidan uyg'otishga qaratilgan ma'rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik harakati keng yoyildi. Ana shunday taraqqiyparvar ziyolilardan biri andijonlik shoir, adib, tarixchi, jurnalist, tarjimon, xattot, rassom, sozanda, shuningdek seleksioner olim – Fozilbek Otabek o'g'lidir.

Fozilbek Otabek o'g'lining to'liq ismi Muhammad Fozilbek qozi Muhammad Otabek shahid Ubaydullabek o'g'li bo'lib,

arxiv ma'lumotlariga ko'ra 1886 yil Andijon shahrining «Devonaboy» dahasida tug'ilgan [1.] (Мухаммад Фозилбек Отабек ўғлининг туғилган ва вафот санасида тадқиқотчилар орасида турли хил маълумотлар келтирилади. Хусусан, Фозилбек ҳаёти бўйича дастлабки тадқиқотлар олиб борган Сайфиддин Жалилов 1879-1938 йиллар деб белгилайди. Сирожиддин Аҳмедов эса, 1879-1936 йиллар деб кўрсатади [«Шарқ юлдузи» журналининг 2015 йил 2-сон, 181-саҳифаси ва «Водийнома» журналининг 2018 йил 3-сон, 52-саҳифалари]. Биз «ТуркРоста» ходимларининг сўроқ варақаларини

архив хужжатлари маълумотларига асосан, унинг туғилган санасини 1886 йил деб олдик).). Otasi – Hoji hofiz Otabek Ubaydullabek o'g'li ziyoli, o'z davrining ilg'or kishilaridan bo'lib, Andijonning Eski shahar dahasida 1900-1905 yillardagi qozisi bo'lgan [13. 181]. Uning Ahmadbek, Fozilbek, Xizrbek, Tojibek, Mahmudbek ismli besh nafar o'g'li bo'lib, farzandlarini madrasa ilmi bilan birga, zamona talabiga muvofiq rus-tuzem maktabida ham tahsil olishiga imkon yaratib, zamonasining ziyoli va ilg'or fikrli kishilaridan bo'lishini ta'minlagan. (Профессор Рустамбек Шамсутдиновнинг асарларида Отабек қози фарзандларининг исми Аҳмадбек, Фозилбек, Маҳмудбек, Ҳомидбек, Хизрбек тартибида берилади (қар. «Шамсутдинов Р. Истиқлол йўлида шахид кетганлар. Тошкент – 2001.,» 143-бет ва Шамсутдинов Р. Фозилбек Отабек ўғли ҳаётига чизгилар. «Водийнома» журнали, 2018 йил 3-сон, 59-бет). Fozilbek Otabek o'g'lining faoliyati bilan shug'ullangan tarixchi olim Sayfiddin Jalilovning fikricha, Otabek qozi sharq tillarini puxta egallagan, sharq she'riyatini yaxshi bilgan, o'z davrining bilimdon kishilaridan edi. Bundan tashqari, Otabek qozining sharq qo'lyozmalaridan iborat noyob kutubxonasi ham bo'lib, o'z davrida tadqiqotchilar bu haqida ham ma'lumotlar qoldirishgan. Sharqning qomusiy olimi Ahmad Zakiy Validiy Qozon universitetining yo'llanmasi bilan 1913-1914 yillarida Turkistonga ilmiy safar uyushtiradi. Keyinchalik, o'zining hisobotlarida andijonlik Otabek qozining shaxsiy fondida saqlanayotgan bir qancha noyob qo'lyozmalari haqida ma'lumot bergan. Ushbu nodir asarlar qatorida Muhammad bin Yahyoning "Savrul qolim", Qazviniyning "Ajoyib ul-mahluqot", o'z qalamiga mansub "Mufassali tarixi Farg'ona" asari, G'afforiyning "Nigoriston"i va Qo'qon xonligi tarixiga oid "Mirot ul-futuh" kabilar mavjud bo'lgan [3. 310]. XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida katta ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan akademik V.Bartoldning ta'kidlashicha, Otabek qozining shaxsiy kutubxonasidan Mahmud Zamaxshariy "al-Kashshof"ining hijriy 640 (1242/1243)

yillarda ko'chirilgan birinchi jildi, Ali bin Muhammad al-Pazdaviy (Yazdaviy) qalamiga mansub hijriy 661 (1263) yilda ko'chirilgan asarlar ham mavjud bo'lgan [4.276].

Otabek qozining sharq xalqlari tarixi va adabiyoti, madaniyati to'g'risida chuqur bilimga egaligi Turkistondagi rus ma'murlarining ham e'tiborini tortadi. Xususan, Nikolay Ostroumov Otabek qozining sharq xalqlari tarixiga oid ilmidan xabar topgach, u bilan uchrashish niyati paydo bo'ladi. 1903-yil Andijonga kelganida Otabek qozining taklifiga binoan uning uyiga tashrif buyuradi. Keyinchalik, N.Ostroumov o'sha uchrashuv va Otabek qozi haqida quyidagicha fikr bildiradi: "...mazkur Otabek qozi ko'b yillardin beri Andijon shahriga qozilik lavozimatida turub xukomlarga va fuqarolarga nihoyatda maqbul va mo'tabar bo'lgon edi va mundin bir necha yil muqaddam hajga borib, adoyi faroyizi haj qilib, Istanbulda ham bir necha vaqt turub, o'shal taraflarning rasm-qoidalariga omil va mohir bo'lgon ekon. Kamina muharrir o'tgon yillarda sayohat qilib Andijon shahriga borganimda ul mutavaffiy qozi manim Andijon borgonimni eshitub, qushxonamga ikki o'g'ullarini yuborubdur meni o'z uylariga taklif aylab. Ul kuni uzr bo'lub bora olmadim. Ertasi qozini o'zlari kelib taklif aylab uylariga olib bordilar» [14.53]. N.Ostroumov yana shuni mamnuniyat bilan aytadiki, Otabek qozining uyida Istanbul, Eron va Hindistonda chiqadigan turli gazeta va jurnallar ham bo'lib, uning farzandlari ham rus tilini puxta egallashgan edi. Lekin, uchrashuvdan ko'p o'tmay, 1905-yil 23-aprelda Otabek qozini o'z uyida qasddan o'ldirilib ketishadi. Tadqiqotchi olim Sirojiddin Ahmedov Otabek qozining bu "sirli" o'limini, o'sha paytdagi chor imperiyasining mahalliy ziyolilarni yo'q qilish siyosatining bir qismi ekanligi haqida o'z tahminlarini bildirib, Otabek qoziga uyushtirilgan bu suiqaqdni Toshkentda yuz bergan Jo'rabek dodxoh o'limi bilan taqqoslaydi [14.184]. Otabek qozining vafotidan so'ng, uning katta o'g'li Ahmadbek uning o'rniga 1922 yilgacha Andijonda qozi bo'ladi [7.144]. Otabek qozi vafotidan so'ng qolgan boshqa farzandlari ham otalari yo'lini

davom ettirib, xalq xizmatida fidokorona xizmatda bo'ladilar.

Otabek qozining ikkinchi farzandi bo'lmish Muhammad Fozilbek, Andijonning Jome madrasasi va Chuqur masjid madrasalarida chuqur bilim olish bilan birgalikda, Andijonda ochilgan ilk rus-tuzem maktabida o'qib, birinchilar qatori rus tilini puxta egallaydi. 1898-yil Andijonda mashhur Dukchi Eshon qo'zg'aloni bo'lgan vaqtda hali o'quvchi bo'lib, o'z xotiralari va boshqa to'plagan materiallari asosida 1927-yil "Dukchi Eshon voqeasi" nomli asar yozadi [11]. O'qish davrida Navoiy, Bedil, Jomiy kabi sharq mumtoz adabiyotining yirik namoyondalari qatori Pushkin, Lermontov, Gogol asarlari bilan ham yaqindan tanishadi [15.74].


Muhammad Fozilbek otasi kabi zamonasining ilg'or kishisi sifatida Turkiston va boshqa mintaqalarda yuz berayotgan jarayonlardan xabardor bo'lish maqsadida, "So'z", "Vaqt", "Turmush", "Fikr", "Yulduz", "Tarjimon" kabi tatarcha gazeta va jurnallar, shuningdek, "Turkiston viloyati gazetasi", "Sadoyi Farg'ona", "Oyna" kabi mahalliy nashrlarni olib turgan [16. 25]. 1917-yil fevral voqealaridan so'ng keng tus olgan taraqqiyparvarlik, jadidchilik harakatlarida ham faol ishtirok etgan. Ayni shu yillarda Andijonda «Maorif havaskorlari», «Nashri maorif» jamiyatlarini tashkil etishda Cho'lpon, Usmonxon Eshonxo'jaev, Husaynixon Niyoziy, Akbar O'rozaliyev, Sanjarbek Qosimbekovlar qatorida faollik ko'rsatadi [8. 45]. 1917-yil Andijonning Eski shahar qismida Cho'lpon tashabbusi bilan «Turon» kutubxonasi ochiladi, uning yonida katta bir qiroatxona ham ishga tushadi. Manbalarda ko'rsatilishicha, o'sha paytda Husaynixon Niyoziy, Usmonxon Eshonxo'ja o'g'li, Vali Maqsudiy, Zahiriddin A'lam, Abdulhay Mahdumlar bilan yonma-yon Turkiston milliy birligining Andijondagi vakili sifatida Fozilbek Otabek o'g'li ham qirotaxonaning boshqaruv hay'atiga saylanadi [8. 46].

Sovet hokimiyati o'rnatilgan dastlabki yillarda esa, Fozilbek familiya va otasining ismini Otabekovich Kaziev, Otabek o'g'li kabi yangichasiga hujjatlashtirib, sovet maktabida rus tili, tarix va botanikadan dars


bera boshlaydi [16. 25]. 1920-yil mart oyidan Andijon uyezd xalq ta'limi sho'basiga mudir o'rinbosari etib tayilanadi [2]. Mudir o'rinbosari sifatida maorif sohasida samarali mehnat qiladi. Arxiv hujjatlaridagi ma'lumotlarga qaraganda, Fozilbek 1921-yil 15-yanvardan «TypkPocTA» («Turkiston-Rossiya telegraf agentligi»)ning Andijon uyezd Eski shahar sho'basida mudir bo'lib ishlay boshlagan. «TypkPocTA» xodimlarining so'roq varaqalarida uning o'sha paytlarda partiyasizligi, ruscha va musulmoncha ma'lumotga egaligi, arab, fors tillarini bilganligi, jurnalist sifatida mahalliy matbuotda yaxshi tanilganligi aytilib, ayni paytda uning qaramog'ida 5 jon – rafiqasi Saodatxon, o'g'illari Habibulla, Hamidullo, Hamroqul va qizi Nodira bo'lganligi qayd etilgan [1]. 1923-1928-yillarda Moskvada K.Timiryazev nomidagi Qishloq xo'jalik Akademiyasining paxtachilik agronomiyasi fakultetida tahsil oladi [15. 75]. Akademiyani tamomlagach, 1928-yildan O'rta Osiyo davlat universitetida o'simlikshunoslikdan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini olib bordi [16. 26]. 1930-yil Toshkent viloyatining Qovunchi qishlog'ida «Россадсавахоз» tuzildi. Fozilbek Qovunchi tajriba xo'jaligiga ertapishar g'o'za navlarini etkazib beruvchi agronom sifatida jalb qilinib, tez orada oilasini ham u erga ko'chirib boradi [16. 26]. Fozilbek Otabek o'g'lining bu erdagi asosiy ish faoliyati ertapishar paxta navlarini gibridlashdan iborat bo'lgan. Ushbu xo'jalik stansiyasida o'z tajribalari asosida tadqiqot ishlarini ham olib borgan. Lekin, 1938-yil may oyi, Qovunchidagi ayni ilmiy-amaliy faoliyatini yo'lga qo'ygan bir paytda to'satdan vafot etadi. Professor Rustambek Shamsutdinovning ta'kidlashicha, Fozilbek Otabek o'g'li ayni sovetlarning qatag'on siyosati avj olgan bir pallada bu siyosatning qurboni bo'lgan [9. 215]. Olimning bunday xulosaga kelishiga etarlicha sabablar bor. CHunki, Fozilbek bilan bir qatorda fevral voqealaridan so'ng Turkistonda milliy taraqqiyparvarlik harakatida qatnashgan ukasi Mahmudbek ham, keyinchalik uzoq yillar sovet davlatiga xizmat qilishiga qaramasdan 1937-yil qamoqqa olinib, shu yilning 23-dekabrida otib tashlangan edi [7. 149]. Sovet davlatida ilmiy faoliyat bilan

shug'ullanishiga qaramasdan, o'zida ona yurtga muhabbat, ozodlik va hurriyat kabi tuyg'ularni saqlab kelayotgan Fozilbek

Otabek o'g'lining ham "tirik" yurishi, sovetlar nazdida aslo mumkin bo'lmagan holat edi.



a



b

Rasm 1. Fozilbek tomonidan to'ldirilgan «ТыпкРосТА» varaqasi.

Muhammad Fozilbekning vafotidan so'ng rafiqasi Saodatxon (1914-1979) farzandlarini o'zi tarbiyalab, voyaga etkazishiga to'g'ri keladi. Lekin, Fozilbekning o'g'il farzandlari ham turli yillarda taqdir taqozosi bilan vafot etganlar. Hozirgi kunda esa, Andijon shahrida uning qizi Naziraxonning farzandlari - Yoqutxon, Shuhratbek va Dilshodbeklar bobosining ishlari vorisi sifatida faoliyat yuritmoqdalar [16. 27].

Muhammad Fozilbek Otabek o'g'lining hayoti o'sha davrdagi voqealar rivojida turli qiyinchilik, Turkiston o'lkasida boshlangan milliy taraqqiyparvarlik, jadidchilik harakati va so'ngra sovetlar davridagi "cheklangan" faoliyatiga qarmasdan ilmiy ishlar, fanning turli soxalariga oid maqola va asarlar yozishdan bir zum ham to'xtamaydi. Fozilbekning, biz tadqiqot mavzuyining asosi qilib olgan «Mukammali tarixi Farg'ona» va «Dukchi Eshon voqeasi» asaridan tashqari fotografiya, asalarichilik, agronomiya, hisob ilmiga oid asarlari va arabcha-o'zbekcha izohli lug'at yaratgani ham ma'lum. Fozilbekning o'zi Nikolay Ostroumovga 1905-yil 15-avgustda yo'llagan maktubida, shu vaqtga qadar tayyorlagan kitoblari haqida quyidagicha ma'lumot beradi: «1 nchi "Ilmi fotog'raf" kim, 253 sahifadan murakkab, musavvar; 2 nchi "Ilmi hisob" i faroyiz tariqi, 381 sahifadan murakkab, "Sbornik

zadach" din ayna tarjima; 3 nchi, hikoya – "Edinsun", musavvar, qo'l bilan qildim. 152 sahifadan murakkab; 4 nchi, hikoyat g'ayr matbug' muntaxab tarjima, 147 sahifadan murakkab, musavvar. ... Va ushbu zamonda musavvar "Tarixi umm" nom bir kitob tahririg'a jistijo'yim bordur. Man qariyb e'timomig'a etkursam kerak. Albatta, bul kitob ham siz janobni nomingizg'a ta'yin qilinsa kerak» [13. 188].

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, N.Ostroumov 1904-yil Otabek qozi xonadonida bo'lganida undan Turkiston, xususan Andijon tarixi bilan qiziqib, shahar tarixi bormi, yo'qmi, deb so'raydi. Agar bor bo'lsa topib, yuborishini iltimos qiladi [14. 54]. Otabek qozi shahar tarixini qidirib, uni hech qaerdan topolmaydi. 1904-yil avgustda N.Ostroumovga yozgan maktubida, shahar tarixini topa olmaganini, ammo yana qayta qidirib ko'rishini, agar topolmasa o'zining bilimi darajasida bir "muxtasar" asar yozib, yuborishini aytadi. Otabek qozi Ostroumov iltimosiga binoan "Mufassali tarixi Farg'ona" asarini yozishni boshlaydi. Ammo, kitobning 185 sahifasi yozilganida, yuqorida aytilganidek o'z uyida suiqasd qurboni bo'ladi. Otasiining vafotidan so'ng, asarni Fozilbek yakunlab, N.Ostroumovga yuborgan maktubida quyidagicha ma'lumot yuboradi: «"Tavorixi Turkiston" dek mufid kitob notamom qolg'onig'a afsus qilib, kitob

qadiymatini jam' aylab, .. 312 sahifadin murakkab bir kitob bo'ldi. 899 nchi yildan 1288 nchi (hijriy) yilg'acha o'tgon voqeotlar, chunonchi, bo'lub o'tmish xonlar, muddati saltanat, elchili(k), kalomi xavoyinin va pirlar, shuarolar, she'rlar, ulug' tarixlar, inolar, g'azal va nisfi ehsonu muruvvat, shirin abyot va madhu sanam, tariqi binoyi Ho'qand, madrasa va masojidlar, muhri Zahiriddin Bobirdin tortub, to polkovnik Smirnovni va general gubernator Kaufmanni oxir umrig'a ma'lum bo'ladur» [13. 188]. Lekin, Sirojiddin Ahmad o'z maqolasida ota-bola Otabekovlarning "Mufassali tarixi Farg'ona (Turkiston)" asari haqida ma'lumot berar ekan, biroz chalkashlikka yo'l qo'yadi. Sirojiddin Ahmad tarixchi Rashid Nabiyeving "Qo'qon xonligi tarixidan" asaridagi "Qozi Otabekning "Mufassali tarixi Farg'ona (Turkiston)" asari kompelyativ asar, ammo o'ziga xos yangi ma'lumotlar bilan to'ldirilgan" [5. 17] jumllarini maqolasida takrorlab, "bu asar Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutida saqlanmoqda" deb, qo'shimcha kiritib o'tadi [13. 184]. Lekin, Qo'qon tarixnavisligi bilan shug'ullangan olimlarning hech qaysi bir asarida "Mufassali tarixi Farg'ona (Turkiston)" asari haqida batafsil izoh, shuningdek, uning saqlanish joyi haqida aniq ma'lumot ham berilmaydi. Rashid Nabiyeving o'zi ham, asarida "Mufassali tarixi Farg'ona (Turkiston)" haqida keltirgan izohlarini, Ahmad Zakiy Validiyning Turkiston o'lkasiga 1913-1914 yillar uyushtirgan ilmiy safar hisobotidan olgan [3. 310]. Zakiy Validiy, bu asarning "Tarixi Shohruxiy" ta'sirida yaratilgani haqida fikr bildirar ekan, uning yana bir nusxasi Farg'ona viloyatining gubernatori A.I.Gippiusga atalganligigi, va har ikkala nusxa ham yarim asar holida tugallanganini qo'shimcha qiladi [3. 310]. Fikrimizcha, N.Ostroumovning iltimosi bilan Otabek qozi tomonidan dastlabki 185 sahifa, Fozilbek tomonidan 382 sahifa holatiga kelib tugallangan "Mufassali tarixi Farg'ona" asaridan ko'chirilib (qayta ishlanib), A.I.Gippiusga «Mukammali tarixi Farg'ona» nomi bilan taqdim qilingan bo'lishi kerak. Ahmad Zakiy Validiy aytganidek, «Mukammali tarixi Farg'ona»ning ham

muallif mo'ljallagan birinchi jildi yozilib, ikkinchi qismining taqdiri noma'lum hisoblanadi. Ayni paytda, tadqiqotlarda foydalanib kelinayotgan «Mukammali tarixi Farg'ona»ning muallif dastxati O'zR FA Fundamental kutubxonasida №09 648 raqami bilan, shu dastxatdan ko'chirilgan yana bir nusxa O'zR SHI qo'lyozmalar xazinasida №5971 raqami ostida saqlanmoqda [6. 247]. Lekin, Fozilbek Otabek o'g'lining N.Ostroumovga maktubida tilga olingan ikki asari: 382 sahifadan iborat "Mufassali tarixi Farg'ona (Turkiston)" va maktubda yozishni niyat qilgan "Tarixi umm" asarlarining taqdiri hozircha noma'lum bo'lib qolmoqda.

Muhammad Fozilbekning yana bir katta ahamiyatga ega tarixiy asari – «Dukchi Eshon voqeasi» dir. Asar 1927-yil Toshkent-Samarqandda eski o'zbek yozuvida chop qilingan. Asarda asosan Fozilbekning o'zi guvoh bo'lgan va o'sha davr kishilaridan yozib olingan ma'lumotlar asosida yozilgan bo'lib, unga qo'shimcha ravishda 17 ta surat ham qo'shilgan. Asarda davr voqeiliklari, qo'zg'alon kelib chiqish sabablari, rus mustamlakachiligining oqibatlarini haqqoniy yoritib beriladi. Asar 1992-yil S.Ahmad, U.Dolimov, Sh.Rizayevlar tomonidan eski o'zbek yozuvidan tabdil qilinib, qayta nashr qilinadi [12].

Fozilbek Otabek o'g'lining Qovunchi tajriba stansiyasidagi ishlari davomida 1934-yil «Yangi usul parniklarda a'lo navli ipak tusli paxtani ko'klatish» nomli 58 sahifadan iborat qo'lyozmasi ham saqlanib qolgan. Asarga qo'shimcha ravishda 25 ta surat ilova qilingan. Bundan tashqari «ТыкРосТА» ning Andijonda chiqadigan nashrida 1921-yil 12-aprel sonida "Andijonda ipakchilik" nomli rus tilida maqola e'lon qiladi. Unda ipakchilik tarixi, pilla va uning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, Andijonda ipak qurti boqishning ahvoli haqida ilmiy ma'lumot berilgan [16. 27]. Shuningdek, o'zbek o'quvchilari uchun ruscha «Сборник задач» to'plamini tarjima qilib, 381 sahifalik «Ilmiy hisob» - misol va masalalar to'plamini tayyorlaydi, tasvirli hikoya va turli hikoyalardan iborat rasmlarga boy bir to'plam-muntahab tarjimini amalga oshiradi va o'zi rasmlar bilan bezaydi [14. 57], Daniel Defoning «Robinzon Kruzo»

sarguzashtini ixcham bayoniy tarjima qilib, 48 sahifalik «Ro'binzon hikoyasi» ni 12 surat bilan bezab, 1911-yilda Toshkentdagi G'ulom Hasan Orifjonov bosmaxonasida chop ettiradi [17. 153]. Umuman olganda o'zining serqirra faoliyati davomida fanning turli sohalariga oid asarlari bilan o'zbek ilm-

fani va adabiyoti rivojiga katta hissa qo'sha oldi. Fozilbek Otabek o'g'li qoldirgan boy ilmiy-ijodiy merosni o'rganish, uni xalqimiz e'tiboriga taqdim qilish, targ'ibot ishlarini olib borish tadqiqotchilar oldida turgan galdagi vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Andijon viloyat davlat arxivi. 312-fond, 1-ro'yhat, 1-3 ish.
2. Andijon viloyat davlat arxivi. 128-fond, 11-ro'yhat, 50-53 ish.
3. Ахмет-Заки Валидов. Восточные рукописи в Ферганской области. – Отдельный оттиск из Записок Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества. Том XXII. 1913-1914., Петроград – 1915.
4. Бартольд В.В. Отчетъ о командировке в Туркестан. Санкт-Петербург., Типография Императорской Академии Наук., 1904.
5. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (феодальное хозяйство Худояр-хана). Тошкент – 1973.
6. Воҳидов Ш. XIX-XX аср бошларида Қўқон хонлигида тарихнависликнинг ривожланиши. Тарих фанлар д-ри. ...дисс. Т., 1998.
7. Шамсутдинов Р. Истиқлол йўлида шаҳид кетганлар. Тошкент – 2001.
8. Шамсутдинов Р. Тарихнинг ҳасратли саҳифалари.— Т.: «Шарқ», 2006.
9. Шамсутдинов Р. ва бошқ. Ватан тарихи (XVI-XX аср бошлари). - Т.: «Шарқ», 2010.
10. Шамсутдинов Р. Фозилбек Отабек ўғли ҳаётига чизгилар. "Водийнома" журнали, 2018 йил 3-сон.
11. Фозилбек Отабек ўғли. «Дукчи Эшон воқеаси» (Фарғонада истибдод жаллодлари). Ўзбекистон давлат нашриёти. Самарқанд-Тошкент., 1927 йил.
12. Фозилбек Отабек ўғли. Дукчи Эшон воқеаси (Фарғонада истибдод жаллодлари). // Нашрга тайёрловчилар С.Аҳмад, У.Долимов, Ш.Ризаев. «Табобат ва нафосат» жамияти., 1992 й.
13. Сирожиддин Аҳмад. Отабола Отабековлар. «Шарқ юлдузи» журнали. 2015 йил 2-сон.
14. Сирожиддин Аҳмад. Андижоннинг тараққийпарвар фидойиларини хотирлаб. «Водийнома» журнали, 2018 йил 3-сон.
15. С.Жалилов. Андижон. Т.: Ўзбекистон, 1989.
16. Жалилов С. Унутилаёзган олим. «Фан ва турмуш», 1979. №7.
17. Каримов Б. "Робинзон Крузо" нинг илк таржимаси. "Жаҳон адабиёти" журнали, 2010 йил 5-сон.